



## HISTORICAL IMAGES OF WOMEN RULERS

*Nazira Shakhobovna Radjabova*

*Master's student of the Asian International University*

[n.rajabova@mail.ru](mailto:n.rajabova@mail.ru)

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Zenobia, Cleopatra VII, Goharshād Begum, Joan of Arc, female rulers, historical heroines, state leadership, Third century crisis, Timurid era, Hundred Years' War.

**Received:** 20.05.26

**Accepted:** 21.05.26

**Published:** 22.05.26

**Abstract:** This article analyzes the historical images of prominent female rulers- Zenobia of Palmyra, Cleopatra VII of Egypt, Goharshād Begum of the Timurid era, and Joan of Arc of France. It highlights their courage, political sagacity and state leadership abilities, placing them within their respective contexts of crisis and transformation. The text underlines how these women challenged patriarchal norms, exercised real power and became enduring symbols of female agency and national heroism.

## AYOL HUKMDORLARNING TARIXIY OBRAZLARI

*Nazira Shaxobovna Rajabova*

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti*

[n.rajabova@mail.ru](mailto:n.rajabova@mail.ru)

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Zenobiya, Kleopatra VII, Gavharshodbegim, Janna d'Ark, ayol hukmdorlar, qahramon ayollar, davlat boshqaruvi, III asr inqirozi, Temuriylar davri, Yuz yillik urush.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola qadimgi va oʻrta asrlar tarixidagi muhim ayol hukmdorlar - Palmira malikasi Zenobiya, Misrning oxirgi mustaqil hukmdori Kleopatra VII, Temuriylar davrining nufuzli malikasi Gavharshodbegim hamda Fransiyaning ozod qilish istiqloli Janna d'Ark faoliyatini solishtirib tahlil qiladi. Ularning jasorati, siyosiy donoligi, davlat boshqaruidagi qobiliyati va ayollarning ijtimoiy siyosiy maydondagi oʻrnini koʻrsatuvchi yorqin misollar keltirilgan. Tarixiy kontekst,

manbalar hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida ayol rahbarlar portreti qayta quriladi.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ИЗОБРАЖЕНИЯ ЖЕНЩИН-ПРАВИТЕЛЕЙ

*Назира Шахобовна Раджабова*

*Магистрант Азиатского международного университета*

[n.rajabova@mail.ru](mailto:n.rajabova@mail.ru)

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

<b>Ключевые слова:</b> Зенобия, Клеопатра VII, Гохаршад Бегим, Жанна д'Арк, женщины правители, исторические героини, государственное управление, кризис III века, эпоха Тимуридов, Столетняя война.	<b>Аннотация:</b> В статье рассматриваются образы известных женщин правителей древности и Средневековья: царицы Пальмиры Зенобии, последней независимой правительницы Египта Клеопатры VII, прославленной тимуридской ханум Гавхаршад Бегим и французской героини Жанны д'Арк. Автор подчеркивает их смелость, политическую мудрость и государственную компетентность, а также демонстрирует, как они выходили за рамки традиционных женских ролей в патриархальном обществе и становились символами женского героизма.
---	---

**Kirish.** Qadimgi tarixda jasorati, siyosiy donoligi va davlat boshqaruvidagi qobiliyati bilan ajralib turadigan ayollar ko'p bo'lgan. Ayol hukmdorlar orasida Zenobia, Kleopatra VII, Gavharshodbegim, Janna d'Arklar alohida o'rin egallaydi. Zenobia milodiy III asrda Palmira davlatining malikasi bo'lib, Rim imperiyasi tarixidagi murakkab siyosiy davr – "Uchinchi asr inqirozi" sharoitida faoliyat yuritgan. Mazkur davr milodiy 235-284-yillar oralig'ini qamrab oladi va imperiyada siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanglik hamda fuqarolar urushlari kuchayishi bilan tavsiflanadi[1].

Kleopatra VII Filopator (mil. avv. 69-30-yillar) - Ptolemeylar sulolasining so'nggi va eng mashhur malikasi, Misrning oxirgi mustaqil hukmdori hisoblanadi. U o'z davrining eng ta'limli va aqlli ayollaridan biri edi. Kleopatra bir necha tillarni - yunon, misr, suriya, ibroniy va boshqa tillarni bilgan, falsafa, ilm-fan hamda davlat boshqaruvi masalalarini chuqur o'rgangan. Uning siyosiy donoligi tufayli Misr Rim bosqiniga qarshi uzoq vaqt mustaqilligini saqlab qolgan[2].

Gavharshodbegim - Amir Temurning kelini, Shohruhning rafiqasi bo'lib, Temuriylar davrining eng nufuzli va faol ayol hukmdorlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat saroy hayotida, balki davlat boshqaruvi, madaniyat va bunyodkorlik ishlarida ham muhim rol o'ynagan[3].

Tarixda ayollarning jasorati va fidoyiligi ko'plab davrlarda namoyon bo'lgan bo'lsa-da, ularning ichida eng mashhurlaridan biri Janna d'Ark hisoblanadi. U XV asr Yevropasida nafaqat harbiy yetakchi, balki diniy ilhom manbai sifatida ham tanilgan. Janna d'Ark obrazi tarixda ayol jasorati, mustaqilligi va vatanparvarlik timsoli sifatida alohida o'rin egallaydi[4].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Maqolada ayol hukmdorlar tarixiy obrazini o'rganishda avvalo qadimgi, o'rta asr va zamonaviy manbalar tahliliga asoslanilgan. Bunda Palmira, Misr, Temuriylar davri hamda Fransiyadagi Yuz yillik urush tarixi bilan bog'liq qo'llanilgan asosiy manbalar - "Zosim", "Avgustlar tarixi", Plutarx, Kassiy Dion, At-Tabariy, Abdu-Razzoq Samarqandiy, Mirxond, Fasih Ahmad Xvofiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Xondamir, Jan Gerson, Kristina de Pizan hamda "Janna d'Ark"ga oid sud hujjatlari va zamonaviy tarixshunoslik asarlari tizimli adabiyotlar tahlili orqali o'rganildi.

**Natija va muhokama.** Ko'plab tarixiy manbalarda Zenobiya kuchli iroda va siyosiy mahoratga ega hukmdor sifatida tasvirlanadi. Ommabop qarashlarga zid ravishda, ayrim tadqiqotchilar uning Rim imperiyasiga qarshi ochiq qo'zg'olon ko'tarmaganini ta'kidlashadi. Shuningdek, u Aurelian tomonidan qo'lga olinib Rim ko'chalarida zanjirband qilingan yoki qatl etilgan degan rivoyatlar ham tarixiy manbalarda to'liq tasdiqlanmagan[5].

Zenobiya haqidagi ma'lumotlar bir qator qadimgi va o'rta asr tarixchilari asarlarida uchraydi. Jumladan, Zosimus, Historia Augusta ("Imperatorlar tarixi" to'plami) mualliflari, John Zonaras hamda mashhur tarixchi Al-Tabari o'z asarlarida uning faoliyati haqida ma'lumot berganlar[6]. Bu manbalar Zenobiyani siyosiy tafakkuri kuchli, harbiy va diplomatik qobiliyatga ega bo'lgan ayol hukmdor sifatida tasvirlaydi.

Shu jihatdan Zenobiya tarixda qahramon ayollar timsoli sifatida e'tirof etiladi. U nafaqat o'z davlati manfaatlarini himoya qilgan siyosiy arbob, balki ayollarning davlat boshqaruvi va harbiy-siyosiy hayotdagi imkoniyatlarini namoyon etgan yorqin tarixiy shaxsdir. Uning faoliyati ayol rahbarlarning tarixiy jarayonlardagi muhim o'rni va salohiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Kleopatra falsafa, vazn o'lchovlari, pul tizimi va kosmetika haqida yozilgan asarlar muallifi sifatida ham tilga olinadi. Galen (II asr) asarlarida saqlanib qolgan qiziqarli retseptlardan biri - soch to'kilishiga qarshi dori - aynan Kleopatra nomi bilan bog'lanadi. Bu retsept tarkibida qizil oltingugurt, mishyak, dub smolasi, selitra va boshqa moddalardan foydalanish tavsiya etilgan[7].

Ikkinchi, yanada kuchliroq retsept esa kuygan uy sichqonlari, uzum novdasi, ot tishlari, ayiq yog‘i, bug‘u suyagi miyasi, qamish po‘sti va asaldan tayyorlangan. Ushbu aralashma metall idishda saqlanib, soch o‘sadigan joyga surtilgan[8].

Izoh: Tadqiqotchilarning fikricha, bu retseptlarning muallifi aslida Kleopatra VII emas, balki I asr oxirida yashagan shifokor bo‘lishi mumkin. Qadimgi mualliflar mashhur nomlardan foydalanib asarning nufuzini oshirishga harakat qilganlar[9].

Shuningdek, alkimyogarlarda Kleopatradagi “Faylasuf toshi” mavjud bo‘lgan, u oddiy metallardan oltin yasay olgan deb hisoblashgan[10]. Rim mualliflari uning boyligi va hashamatini ta’kidlab, uni “Nil iloni” deb ham ataganlar[11].

Kleopatra siyosiy hayotda ayollarning faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlagan hukmdorlardan biri edi. U iqtisodiy ishlab chiqarish, ayniqsa to‘qimachilik ustaxonalarini ham nazorat qilgan. Ba’zi manbalarda u boshqa hudud hukmdor ayollariga siyosiy yordam ko‘rsatgani ham qayd etiladi[12].

U siyosiy ambitsiyalarini hech qachon hissiyotlarga qurbon qilmagan va davlat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

Kleopatra tarixdagi eng mashhur va kuchli ayol hukmdorlardan biridir. Rim tarixchilari uni ko‘pincha salbiy obrazda tasvirlagan bo‘lsalar ham, zamonaviy tadqiqotlar uni aqlli strateg, diplomatik siyosatchi va kuchli davlat arbobi sifatida baholamoqda[13].

Gavharshodbegim 1379-yilda tug‘ilgan va 1393-yilda Shohrux Mirzo nikohiga kirgan. Ularning oilasida uch o‘g‘il va ikki qiz tug‘ilgan. Ularning farzandlari orasida mashhur hukmdor va olim - Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay, 1394-1449), shuningdek Boysung‘ur Mirzo (1397–1433) hamda Muhammad Jo‘ki Mirzo (1401-1445) kabi shahzodalar bor edi[14].

Tarixiy manbalarda Gavharshodbegim dono, tadbirkor, qat’iyatli va zukko ayol sifatida tasvirlanadi. Shohrux Mirzo tabiatan dindor bo‘lib, ko‘p vaqtini ibodat va ilmiy mutolaaga bag‘ishlagan. Shu sababli davlat boshqaruvida Gavharshodbegim muhim rol o‘ynagan. Viloyatlarga hokim tayinlash, harbiy qo‘mondonlarni belgilash, mukofot va jazolarni belgilash kabi muhim siyosiy qarorlar ko‘pincha uning maslahatlari bilan amalga oshirilgan[15].

Masalan, Hirot tarixchisi Fasih Ahmad Xvafiy malikaning g‘azabiga uchrab, qisqa muddat qamoqqa hukm qilinganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi[16]. Bu holat Gavharshodbegim saroy siyosatida qanchalik kuchli ta’sirga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Gavharshodbegim Shohrux Mirzoning harbiy yurishlarida ham qatnashib, shahzodalar va amaldorlarning faoliyatini kuzatib borgan. Ayniqsa taxt vorisini tayinlash masalasida u faol

siyosiy pozitsiya tutgan. U o'z nabirasi Alouddavla Mirzoni taxt vorisi sifatida ko'rishni istagan. Bu masala Temuriylar sulolasi ichida murakkab siyosiy kurashlarni keltirib chiqargan[17].

Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Xuroson siyosiy va madaniy jihatdan katta taraqqiyotga erishdi. Poytaxt Hirot Sharqning eng yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Bu yuksalishda Gavharshodbegimning hissasi katta bo'ldi. Uning tashabbusi bilan masjid, madrasa, xonaqoh, ko'prik, shifoxona va boshqa ko'plab inshootlar bunyod etildi[18].

Xususan, Hirotida qurilgan mashhur Gavharshodbegim masjidi ham aynan Gavharshodbegim homiyligida bunyod etilgan bo'lib, Temuriylar me'morchiligining yuksak namunalariidan biri hisoblanadi[19].

1447-yilda Shohrux Mirzo vafotidan so'ng Temuriylar sulolasida taxt uchun kurashlar boshlanadi. Bu siyosiy voqealarda ham Gavharshodbegim faol qatnashgan va o'z nabirasi Alouddavla Mirzoni taxtga chiqarishga harakat qilgan. Biroq sulola ichidagi nizolar uning rejalarini amalga oshirishga imkon bermadi[20].

Keyinchalik Xuroson taxtini egallagan Abu Sa'id Mirzo Gavharshodbegimning siyosiy faoliyatidan xavotirlanib, 1457-yilda uni qatl ettiradi[21].

Janna taxminan 1412-yilda Domremiy qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tug'ilgan. Uning yoshlik davri "Yuz yillik urush"ning eng keskin davrlariga to'g'ri keladi. Bu urush davomida Fransiya hududlarining katta qismi inglizlar nazoratiga o'tgan edi. Ayniqsa, Azenkur jangidan so'ng Fransiya siyosiy jihatdan og'ir ahvolga tushib qolgan edi[22].

Janna yoshligidan o'zini Xudoning irodasini bajaruvchi shaxs deb hisoblagan. U Avliyo Maykl va boshqa avliyolardan vahiy olganini ta'kidlab, Fransiyani ozod qilish vazifasi unga yuklatilganini bildirgan. Shu sababli u taxt vorisi bo'lgan Karl VII bilan uchrashish uchun yo'lga chiqqan. Nihoyat, 1429-yilda u saroyga yetib borib, inglizlarga qarshi kurashish niyatini bildiradi[23].

Janna d'Arkning tarixdagi eng muhim xizmatlaridan biri Orlean qamalini yorib o'tishdagi ishtirokidir. Orlean shahrining ozod etilishi Fransiya tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Bu g'alaba Jannaning harbiy yetakchilik qobiliyatini namoyon qilibgina qolmay, uni xalq orasida ilohiy missiyaga ega shaxs sifatida tanitdi. Uning harbiy yurishlardagi qat'iyati va jasorati natijasida Fransiya qo'shinlari ruhiy jihatdan kuch oldi[24].

Jannaning muvaffaqiyatida uning shaxsiy e'tiqodi va bokiralik haqidagi qarashlari ham muhim rol o'ynadi. O'sha davrda bokiralik cherkov va jamiyat tomonidan muqaddas fazilat sifatida qaralgan. Janna "Fransiya bokirasi" sifatida tanilib, bu maqom uning ilohiy vazifa bilan

bog'liqligini mustahkamladi. Aynan shu fazilat unga jamiyatda ishonch va hurmat qozonishga yordam berdi[25].

Shu bilan birga, oddiy kelib chiqishga ega bo'lgan ayolning siyosiy va harbiy yetakchiga aylanishi o'sha davrdagi patriarxal tuzum uchun tahdid sifatida ko'rildi. Jannaning mustaqil qaror qabul qilishi, qirolga maslahat berishi va harbiy yurishlarni boshqarishi ayollarning jamiyatdagi o'rni haqidagi an'anaviy tasavvurlarga zid edi. Shu sababli uning faoliyati cherkov va siyosiy doiralarda bahs-munozaralarga sabab bo'ldi[26].

**Xulosa.** Yuqorida ko'rib chiqilgan tarixiy shaxslar - Kleopatra VII, Gavharshodbegim hamda Janna d'Ark faoliyati shuni ko'rsatadiki, tarixda ayollar ham murakkab siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruvida muhim o'rin egallagan. Kleopatra Rim tarixchilari tomonidan ko'pincha salbiy obrazda tasvirlangan bo'lsa-da, zamonaviy tadqiqotlar uni yuqori siyosiy tafakkurga ega bo'lgan strateg, mohir diplomat va kuchli davlat arbobi sifatida baholaydi. Gavharshodbegim esa Temuriylar davrining eng nufuzli ayollaridan biri bo'lib, nafaqat davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan, balki ilm-fan, madaniyat va me'morchilik rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Janna d'Ark esa o'zining jasorati, mustahkam e'tiqodi va vatanparvarligi bilan tarixda qahramon ayol timsoli sifatida saqlanib qolgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zosimus. *Historia Nova*. – London: Green and Chaplin, 1814. Book IV, pp. 44-60.
2. Southern, P. *Empress Zenobia: Palmyra's Rebel Queen*. London: Continuum, 2008, p. 24–26.
3. Fayziyev T. *Temuriy malikalar*. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994. – B. 12–15.
4. Christine de Pizan. *Ditié de Jehanne d'Arc*
5. Southern P. *Empress Zenobia: Palmyra's Rebel Queen*. – London: Continuum, 2008. pp. 1-6.
6. Al-Tabari. *Tarikh al-Rusul wa al-Muluk*. – Leiden: Brill, 1879. Volume I, pp. 819-822
7. Galen. *De compositione medicamentorum*, Book XII, p. 210–212.
8. Jackson, R. *Doctors and Diseases in the Roman Empire*. London: British Museum Press, 1988, p. 87.
9. Totelin, L. *Hippocratic Recipes*. Leiden: Brill, 2009, p. 143–145.
10. Principe, L. *The Secrets of Alchemy*. Chicago: University of Chicago Press, 2013, p. 58.

11. Roller, D. Cleopatra: A Biography. Oxford: Oxford University Press, 2010, p. 132.
12. Grant, M. Cleopatra. London: Phoenix Press, 2004, p. 90–92.
13. Schiff, S. Cleopatra: A Life. New York: Little, Brown and Company, 2010, p. 270–275.
14. Abd al-Razzaq Samarqandi. Matla' us-Sa'dayn va Majma' ul-Bahrayn. – Tehran, 1973. – II jild, 115–118-betlar.
15. Mirkhwand. Rawzat al-Safa. – Tehran, 1959. – VII jild, 240–243-betlar.
16. Fasih Ahmad Khwafi. Mujmal-i Fasihi. – Mashhad, 1963. – 221–223-betlar.
17. Beatrice Forbes Manz. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 201–205-betlar.
18. Thomas W. Lentz, Glenn D. Lowry. Timur and the Princely Vision. – Washington, 1989. – 150–155-betlar.
19. Lisa Golombek. The Timurid Renaissance. – Los Angeles, 1988. – 88–92-betlar.
20. Sharaf ad-Din Ali Yazdi. Zafarnama. – Tehran, 1957. – 415–418-betlar.
21. Khwandamir. Habib al-Siyar. – III jild, 140–145-betlar.
22. Potter D. The Roman Empire at Bay: AD 180–395. – London: Routledge, 2004.
23. Southern P. Empress Zenobia: Palmyra's Rebel Queen. – London: Continuum, 2008.
24. Jean Gerson asarlaridagi fikrlar asosida.
25. Christine de Pizan. Ditié de Jehanne d'Arc
26. Joan of Arc trial records (1431) materiallari asosida.